

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA QILISHNING MUQOBIL USULLARI HAQIDA

*M. Mardiyeva*<sup>1</sup>

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning ingliz tilidagi muqobillari va ularning tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar haqida bahs yuritiladi. Frazeologik birliklar tilning madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlarining ko'zgusi bo'lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda madaniy tafovutlarni hisobga olish lozim. Maqolada o'zbek tilidagi bir qator frazeologik birliklar va ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari o'rganiladi, shuningdek, bu birliklarni tarjima qilishda yo'l qo'yiladigan asosiy xatolar va ularni bartaraf etish usullari haqida so'z boradi.

*Kalit so'zlar:* Frazeologik birliklar, tarjima, ekvivalent, o'zbek tili, ingliz tili, madaniy tafovut, tilshunoslik, lingvistika.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/srrphy94>

Frazeologik birliklar har qanday tilning ajralmas qismi bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha tarkibidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosidan farq qiladi. Frazeologik birliklar orqali xalqning urf-odatlarini, tarixiy an'analarini va madaniyatini aks ettiriladi. Shu boisdan, frazeologik birliklarni boshqa tilga tarjima qilish katta mas'uliyat talab etadi. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda bir qancha muammolar paydo bo'ladi, chunki har bir til o'ziga xos madaniyatini va mantiqiy tizimiga ega.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda ekvivalent topish ko'pincha qiyin kechadi, chunki har ikkala tilda ham bir xil birliklar mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "qushday yengil tortdik" frazeologik birligi biror bir tashvishdan halos bo'lganlikni va yengil tortganlikni ifodalaydi, ushbu iboraning ingliz tilidagi muqobil varianti quyidagicha "As light as a feather" ushbu ibora leksik hamda semantik jihatdan o'zbek tilidagi "qushday yengil tortmoq" iborasiga adekvat deb hisoblash mumkin.

Asarda ushbu ibora quyidagi holatda uchraydi: "Mollarni tamoman sotib, qushday yengil tortdik. (25-bet)". Ushbu jumlaning ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiqdir: "We sold all the goods and felt as light as feathers". (M.Mardiyeva).

Frazeologik birliklarning tarjimasida madaniy tafovutlar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'zbek tilidagi "qo'lini qovushtirib" iborasi biror kimsaning hech narsa qilmasdan turishini ifodalash va ma'yus holatda o'tirishini ifodalanishi uchun qo'llanilganidir. Mullanamo kishi tiz cho'kib: ikki qo'lini qovushtirib Sultonning gaplariga miyig'ida odob bilan tabassum qilib o'tirar edi(34-bet. )Ingliz tilida bu frazeologik birlikka eng yaqin ekvivalent "To clasp hands" yoki "Wring smb's hands" tarzida bo'lib, ushbu iboraning ma'nosini to'g'ri aks ettiradi. Jumlaning ingliz tilidagi tarjimasini quyidagicha keltirish mumkin: "A religious man was bowing down, clasping his hands, and sitting with a smile at Sulton's words". Asarda ushbu ibora bilan bog'liq yana bir jumla uchraydi: "Domla ham ishtonini, salla, to'nlarini namoz jumadagiday savlat qilib kiyib, qo'l qovushtirib, lablarida bir nimalarni shivirlab o'qib o'lik tepasida turar edi.

<sup>1</sup> Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna, SamDCHTI o'qituvchisi

Biroq, ayrim holatlarda o'zbek tilidagi iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish natijasida ularning asl ma'nosi o'zgartirilishi mumkin. Masalan, "birim ikki bo'lib boryapti" iborasi kimningdir boyib, molu davlati oshib borayotganligini bildiradi, lekin buni ingliz tiliga so'zma-so'z tarjima qilganda, bu tushunarsiz bo'lib qoladi. Ingliz tilida bunday holat uchun "Stricke gold" frazeologik birligi mos keladi. Asarda ushbu jumla quyidagi holatda uchraydi: "Ota kasbida gap ko'p ekan, birim ikki bo'lib boryapti". Asar tarkibidagi ushbu jumlaning ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiqdir: "It seems because of continuing my father's job I struck gold".

"Omonning rangi yana quv o'chib ketdi.(47-bet)" Asardan olingan ushbu parcha tarkibidagi "rangi yana quv o'chib ketdi" iborasi o'zbek xalqi orasida ko'p uchrab turadi va tilimizda keng qo'llaniladi. Keltirilgan ushbu ibora kimdir nimadandir qattiq qo'rqqanini ifodalash uchun qo'llaniladi. Ingliz tilida bu iboraga yaqin tarjima "Scared to death" yoki "My heart skipped a beat" bo'lib, u ham insonlarda sodir bo'ladigan qo'rquv hissini ifodalaydi. O'zbek tilidagi ushbu gapni ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiqdir: "Omon was scared to death"

Tarjima jarayonida frazeologik birliklarning kontekstual ma'nosini tushunish va ular o'rtasidagi madaniy farqlarni hisobga olish muhimdir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda eng asosiy qiyinchiliklardan biri bu madaniy va tarixiy kontekstda tushuniladigan iboralarni boshqa tilga mos ekvivalent topishdir. O'zbek tilidagi "qulog'i ostida qolmoq" iborasi shaxsning vafot etganligi, yoki insonning biologik jihatdan hayot faoliyati tugash holatini bildiradi. Ingliz tilida esa bunday holat uchun "Breathe one's last" iborasi mos keladi. G'afur Gulomning "Shum bola" asarida ushbu ibora quyidagi jumla tarkibida uchraydi: "Miqqiyning qulog'i ostida qolgan, ya'ni o'lgan edi."(16-bet) Ushbu jumlaning ingliz tilidagi tarjimasini quyidagi holatda berishimiz maqsadga muvofiq: "Mikkiy breathed his last and passed away" (M.Mardiyeva). Asarning ingliz tilidagi tarjimasida ushbu ibora quyidagicha tarjima qilingan: "When I entered there, all the birds had already died." (I.M.To'xtasinov,10-b)

Tarjima qilingan frazeologik birliklar asosan ikkita yondashuv bilan amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri ekvivalentni topish yoki iborani ma'nosiga mos tarzda qayta ifodalash. Masalan, "suvdan quruq chiqmoq" iborasini "to get off scot-free" tarzida tarjima qilish mumkin, bu "biror jazo olmasdan qutulib qolish" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda ham so'zlarning o'zi o'zgargan bo'lsa-da, asosiy ma'no saqlanib qolgan.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishda har ikkala til va madaniyatning lingvistik xususiyatlarini chuqur bilish talab etiladi. Frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha ularning asl ma'nosini yo'qotishga olib keladi, shuning uchun tarjimonlar frazeologik birliklarni kontekstual va madaniy jihatlardan to'g'ri anglab, ekvivalent ifodalarni tanlashlari kerak. Maqolada keltirilgan misollar o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatadi. To'g'ri tarjima, frazeologik birliklarning madaniy ma'nosini saqlab qolgan holda amalga oshirilishi kerak. Bu esa ikki til vakillari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. Abjalova M., Rashidova U., Abdumuminov B. *Matnlarni qayta ishlash manbalari //Computer linguistics: problems, solutions, prospects.* – 2022. – T. 1. – №. 1.

[2]. Humorous phraseologisms - as a tool offunny assessment of real events (in French material) Shahobiddin Ashurov and Nigorabonu Suvonova *BIO Web Conf.*, 65 (2023) 10024 DOI: <https://doi.org/10.1051/bioconf/20236510024>

[3]. Ашуров , Ш. 2023. Некоторые соображения по этимологическим и лексически-семантическим характеристикам английских пословиц. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика.* 1, 4 (июль. 2023), 6–12. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss4-pp6-12>.

- [4]. Ашуров, Ш. (2022). Фразеологик бирликларнинг структур-грамматик хусусиятлари тадқиқи. *Современные лингвистические исследования: зарубежный опыт, перспективные исследования и инновационные методы преподавания языков*, (1), 69–72. <https://doi.org/10.47689/linguistic-research-vol-issi-pp69-72>
- [5]. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). *Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (Türklad)*. 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.
- [6]. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati. -T.:Qomuslar yosh tahririyati. -T: 1992.*
- [7]. Rashidova U. M. *Multi-meaning somatic phraseology in the uzbek language and their stylistic coloring //Thematics Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 7. – №. 5.*
- [8]. Rashidova U. M. *O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili //Fil. fan. diss. avtoreferati, Samarqand. – 2018.*
- [9]. *Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. 5-kitob. – Toshkent: G'.G'ulom, 1980. 302 b.*
- [10]. *G'.G'ulom. Shum bola. –Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2018. - 192 b.*
- [11]. *Mardiyeva M.Sh. G'afur G'ulomning individual frazeologizmlar qo'llash mahorati.// Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar-2023.-7-21 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3282>*
- [12]. *Mardiyeva M Sh. Анализ теоретических рассмотрений стабильных соединений и их типов// til,ta'lim,tarjima, 2023.-99 b.*
- [13]. <https://tadqiqot.uz/index.php/language/article/view/9353>